

## **"HIMOYALANGAN YER INSHOOTLARI TURLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI**

**Saidqulova Jahona Botir qizi**

Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Himoyalangan yer inshootlari haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish hamda ushbu mavzuni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lif metodlari ta'lif sifatiga ta'siri haqida.

**Kalit so'zlar:** Himoyalangan yer, himoyalangan yer inshootlari turlari, oliv ta'lif tizimi, islohotlar, zamonaviy metodlar, "Aqliy hujum" tahlili metodi.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'lifning taraqqiyotisiz tasavvur qilib bodmaydi. Hozirgi kunda davlatimizda ta'lifni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham beziz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lif tizimida, jumladan, oliv ta'lifda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergen o'zgarishlar huquqiy, ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan tarixiy ahamiyatga ega. So'ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat ham ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, mamlakatda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish hajmlarini ko'paytirish yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-

tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda meva- sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va xorijiy davlatlarga eksport qilishda issiqxona xo‘jaliklarining salohiyatidan to‘laqonli foydalanilmoqda.

Ushbu mavzumiz bo‘yicha talabaning mustaqil harakatini mashg‘ulotlarda ta’lim texnologiyasi orqali quyidagicha ko‘rinishda qo‘llashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda har bir talabaning ongiga chuqurroq singdirish maqsadida “*Aqliy hujum*” zamonaviy metoddan foydalanamiz.

Mazkur metod himoyalangan yer inshootlari turlari mavzusi yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtiroychilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida himoyalangan yerlarning turlari va qularning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati, bugungi kunda issiqxonalarini ko‘paytirishdagi muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni tanlash imkoniyati tug‘iladi. “*Aqliy hujum*” metodi himoyalangan yer inshootlari turlari mavzusi doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- talaba (talaba (o‘quvchi))larning o‘zlarini erkin his etish uchun sharoit yaratib berish;
- g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;
- muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;
- mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;
- bildirilayotgan g‘oyalarning ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;
- qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr) lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

- bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;
- boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oya (yoki fikr)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- yangi g‘oyalar bildirilish davom etayotgan ekan, muammoning yagona yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek:

- talaba (o‘quvchi)lar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;
- talaba (talaba (o‘quvchi))larning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;
- g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi.
- boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning talaba (o‘quvchi)lar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Talaba (o‘quvchi)larni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir talaba (o‘quvchi) tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘lishiga olib keladi.
3. Har bir talaba (o‘quvchi) o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Mashg‘ulot jarayonida talaba (o‘quvchi)lar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, talaba (o‘quvchi)lar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi.

Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad talaba (o‘quvchi)larni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
- 2.Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.K., Adilov M.M, Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. 2009 y. (darslik).